

TABIYIY RESURLARDAN MAXSUS FOYDALANISHNI HUQUQIY TA'MINLASHNI TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI

Allaberdiyev Sardor Shuxat o'g'li

Magistr. Toshkent davlat yuridik universiteti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17490384>

Mavzuning dolzarbligi. O'zbekiston Respublikasining tabiiy boyliklari mamlakatning barqaror rivojlanishining asosi bo'lib, ularni asrash va oqilona foydalanish bugungi kunda eng muhim vazifalardan biridir. Aholi sonining ortib borishi hamda sanoat va qishloq xo'jaligi faoliyatining kengayishi natijasida tabiiy resurslarga bo'lgan ehtiyoj keskin oshmoqda. Buning oqibatida resurslarning kamayishi ekologik muvozanatning buzilishiga, inson hayoti va sog'lig'iga jiddiy tahdid tug'dirishga sabab bo'lmoqda. Shu bois, tabiiy resurslardan oqilona foydalanishni ta'minlash uchun huquqiy tartibga solish mexanizmlarini takomillashtirish zarurati kundan-kunga ortib bormoqda.

O'zbekiston Respublikasining tabiiy boyliklari – yer, suv, o'rmon, foydali qazilmalar, havoning tozaligi va boshqa atrof-muhit omillari – mamlakat barqaror rivojlanishining asosi hisoblanadi. Aholi sonining ortib borishi, sanoat va qishloq xo'jaligi faoliyatining kengayishi, urbanizatsiya va texnologik jarayonlarning jadallashuvi tabiiy resurslarga bo'lgan ehtiyojni oshirib bormoqda. Shu bilan birga, ularni asrash, tejash va oqilona foydalanish zaruriyati ham dolzarb muammoga aylanmoqda. O'zbekiston tabiiy-iqlimiy sharoitlari inobatga olinsa, resurslar zahirasi cheklangan bo'lib, ular asosan tiklanmaydigan yoki sekin tiklanadigan turlarga kiradi.

Tabiiy resurslar kamayishi - kishilarning xo'jalik va boshqa hayotiy faoliyati manbai bo'lgan tabiiy obyektlarning yo'qola borishidir. Mutaxassislarning ma'lumotlariga ko'ra, "insoniyat sivilizatsiyasi" davrida, to'g'rirog'i iqtisodiy madaniyatlashgan kishilarning izchil faoliyati davrida Yer kurrasidagi o'rmonlarning **2/3** qismi kesilib ketdi, **250** xil turdagi hayvon va o'simliklar yo'q bo'lib ketdi, **3-4 mlrd. gektar** yer qishloq xo'jalik oborotidan chiqarib yuborildi, atmosfera havosidagi kislorodning zaxirasi **10 mlrd. tonnaga** kamaydi. Keyingi 100 yil ichida, fransuz olimi A.Gerrenning ma'lumotlariga ko'ra, tuproq eroziyasi va texnogen buzilishi **2 mlrd. gektar** yerni unumdorligini yo'qotib yuborgan. Shu 13 kunlarda Yer kurrasida 1 daqiqada 20 ta o'rmon kesilmoqda, kuniga bir turdagi hayvonot yoki o'simlik turi qizil kitobga kiritilmoqda. Qirq yil mobaynida Orol dengizi akvatoriyasi **7 baravar qisqardi**, suv hajmi **13 marta kamaydi**, uning minerallashuvi esa o'nlab baravar oshib, dengizni tirik organizmlarning yashashi uchun yaroqsiz ahvolga keltirdi. Natijada qariyb barcha hayvonot va nabotot olami tanazzulga uchradi va yo'qoldi. O'zbekiston quvvati katta, tabiiy manbalari xilma-xil turlarga va ulkan zaxiralarga ega bo'lgan yoqilg'i energetika sanoatiga ega. Respublika yoqilg'i balansida neftning salmog'i sal kam 10 foizni, tabiiy gaz salmog'i - 85 foizdan ortiqni, ko'mirning salmog'i salkam 5 foizni tashkil etadi. Respublika sanoati yalpi mahsulotida yoqilg'i energetika kompleksining salmog'i 1999-yilda 28,9 foizni tashkil etdi va 1995-yilga nisbatan 9,7 foizga ko'paydi.

O'zbekistonda 1999-yilda 8,1 mln tonna neft (gaz kondensanti bilan), 51,0 mlrd kub tabiiy gaz va 2,8 mln tonna ko'mir qazib chiqarildi. O'zbekiston hududida ulkan neft va tabiiy gaz zaxiralari mavjud bo'lib, ularning ayrimlari asosida yirik konlar ochilgan. Neft va gaz mavjud bo'lgan 5 ta asosiy mintaqani ajratib ko'rsatish mumkin, bular: Ustyurt, Buxoro-Xiva, Janubi –

g'arbiy Hisor, Surxondaryo, Farg'ona mintaqalaridir. Neft va gaz resurslarining zaxiralari bir trillion AQSh dollaridan ziyod baholanmoqda.

Rus mutaxassislari N.N. Rozov va M.N. Stroganova (1979) fikriga ko'ra kelajakda Yer yuzidagi dehqonchilik yerlari maydonini ko'proq o'tloq va yaylovlar hisobidan, kamroq o'rmonlar hisobidan kengaytirib, 2,66 mlrd. gektargacha yetkazish mumkin. Bu maydondan olinadigan hosil 8-9 mlrd. kishini oziq-ovqat bilan ta'minlaydi. V.A. Vashanov va P.F. Loyko (1975) ma'lumotlariga ko'ra dunyoda **750-820 mln. gektar** o'zlashtirilishi mumkin bo'lgan rezerv yer bo'lib, ular hisobidan dehqonchilik maydonlarini 2,2 mlrd. gektarga yetkazish mumkin. Bu rezerv yerlarning asosiy qismi (640-660 mln.ga) rivojlanayotgan mamlakatlarda joylashgan bo'lib, shuning yarmi Lotin Amerikasi hududidadir. Masalan, Argentinada mavjud 240 mln. gektar hosildor yerlarning faqat 30 mln. gektari (20%) ekilmoqda. Hozirgi vaqtda 10 mln. aholisi bo'lgan Amazonka havzasining dehqonchilikka yaroqli yerlari 1 mlrd. kishini oziq-ovqat bilan ta'minlay oladi. BMT ekspertlarining ma'lumotiga ko'ra 1970-2000 yillar orasida dunyo bo'yicha 80 mln. gektar yangi yer o'zlashtirildi, shundan 56 mln. gektari 39 rivojlanayotgan mamlakatlarga to'g'ri keladi. Ekinzorlarning kengayishi ayniqsa Lotin Amerikasi va Tropik Afrikada ko'p bo'ldi.

Yuqorida ko'rsatilgan statistik ma'lumotlardan kelib chiqqan holda tabiiy resurslardan maqsadli foydalanish qanchalik darajada muhimligini ko'rishimiz mumkin.

Bunday sharoitda huquqiy tartibga solish mexanizmlari resurslardan oqilona foydalanishning asosiy vositasi sifatida qaraladi. Afsuski, amaldagi qonunchilikda mavjud bo'lgan ziddiyatlar, eskirgan normalar, ruxsatnoma tizimidagi noaniqliklar, javobgarlik choralarining yetarli emasligi sababli hozirgi holatda resurslardan samarasiz foydalanish va ularni isrof qilish holatlari kuzatilmoqda. Shu sababli, ushbu sohada chuqur huquqiy islohotlar o'tkazish zarurati kundan-kunga ortib bormoqda.

Birinchidan, inson va tabiat uchun eng kerakli bo'lgan tabiiy resurs – bu albatta suv hisoblanadi. Yillar o'tishi natijasida butun dunyoda, shu bilan birgalikda O'zbekiston Respublikasida ham suv sig'imi kamayishi, aholining unga nisbatan ehtiyojining ortib borishi undan maxsus foydalanish tartibini chuqur isloh qilinishini talab qiladi. Suvdan maxsus foydalanish yoki suvni maxsus iste'mol qilish ruxsatnoma asosida amalga oshiriladi.

“Suv va suvdan foydalanish to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasining Qonunining 27-moddasiga asosan tabiiy suv obyektlarining suvidan maxsus foydalanish yoki ularning suvini maxsus iste'mol qilish uchun ruxsatnoma yer usti suvlari bo'yicha — suv xo'jaligi organlari bilan kelishilgan holda ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish organlari, yer osti suvlari bo'yicha — geologiya va mineral resurslar organlari bilan kelishilgan holda belgilanadi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Yer osti suvlaridan foydalanishga oid ruxsat etuvchi hujjatlarni berish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida” 2021-yil 8-yanvardagi 9-son qarorining 3-ilovasi bilan tasdiqlangan Ma'muriy reglamenti ishlab chiqilgan. Ushbu reglamentning

3-bandiga muvofiq Ruxsatnoma O'zbekiston Respublikasi Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligi huzuridagi “Yer qa'ridan foydalanish markazi” DM (keyingi o'rinlarda — Yer qa'ridan foydalanish markazi) tomonidan O'zbekiston Respublikasi Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligining hududiy gidrogeologiya stansiyalari (keyingi o'rinlarda — gidrogeologiya stansiyalari) xulosasini inobatga olgan holda “Lisenziya” axborot tizimi **yoki O'zbekiston**

Respublikasi Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali (keyingi o‘rinlarda — YAIDXP)

orqali berilishi;

8-bandiga muvofiq Jismoniy va yuridik shaxslar (keyingi o‘rinlarda — ariza beruvchilar) ruxsatnomalar olish uchun “Lisenziya” axborot tizimi yoki davlat xizmatlaridan elektron tarzda foydalanish uchun YAIDXPda ro‘yxatdan o‘tishi;

12-bandiga muvofiq Davlat xizmatlarini ko‘rsatish uchun undirilgan yig‘im summasi quyidagi tartibda taqsimlanadi:

a) “Lisenziya” axborot tizimi orqali murojaat etilganda **20 foizi** — O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining Davlat xizmatlarini rivojlantirish jamg‘armasi shaxsiy g‘azna hisobvarag‘iga;

b) YAIDXP orqali murojaat etilganda **10 foizi** — O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining Davlat xizmatlarini rivojlantirish jamg‘armasi shaxsiy g‘azna hisobvarag‘iga ajratilishi belgilangan. Ammo, **“Litsenziyalash, ruxsat berish va xabardor qilish tartib-taomillari to‘g‘risida”gi 14.07.2021 yildagi 701-sonli O‘zbekiston Respublikasining Qonunining 8-moddasiga muvofiq** Litsenziyalash, ruxsat berish va xabardor qilish tartib-taomillaridan o‘tish, vakolatli organlarning idoralararo elektron hamkorlik qilishi, shuningdek litsenziya, ruxsat berish va xabardor qilish talablari hamda shartlari bajarilishining monitoringini o‘tkazish jarayonlarini qamrab oladigan, jismoniy va yuridik shaxslar uchun ochiq bo‘lgan **“Litsenziya”** axborot tizimi maxsus elektron hisoblanishi belgilangan. Ushbu holat qonunchilikdagi ziddiyatlarni ko‘rsatadi.

Ikkinchidan, “Yer osti suvlaridan foydalanishga oid ruxsat etuvchi hujjatlarni berish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori tasdiqlangan. Umumiy tartibga ko‘ra Gidrogeologiya stansiyalari, Suv xo‘jaligi vazirligi hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari to‘rt ish kuni mobaynida yer osti suvlaridan maxsus foydalanish yoki ularni maxsus iste‘mol qilish maqsadidan kelib chiqqan holda o‘rganib chiqadi, kelishib beradi va tegishli ma‘lumot tayyorlab, Yer qa‘ridan foydalanish markaziga elektron shaklda yuboradi. Ushbu xulosa asosida yer osti suvlaridan foydalanish bo‘yicha ruxsatnoma berilishi yoki berilmasligi mumkin. Ushbu xulosani berish muddati 8 kun etib belgilangan. Qonunchilik hujjatlari bilan tasdiqlangan ro‘yxatga muvofiq yer osti suvlarining ko‘p yillik o‘rtacha sathiga nisbatan suv sathi 5 metrgacha pasaygan hududlar bo‘yicha ariza bilan bir vaqtda quyidagi organlar tomonidan 5 ish kuni ichida kelishib beriladi:

a) Suv xo‘jaligi vazirligi: qishloq xo‘jaligi ekin maydonlarini sug‘orish maqsadlari uchun — suv tejovchi texnologiyalarni joriy etish shartlari bilan yer osti suvlariga quduqlarni burg‘ilashga gidrogeologik xulosani berish uchun arizani qabul qilish yoki rad etishni kelishib beradi;

b) Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimliklari: ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun — hududiy rivojlantirish dasturlari va suvdan tejimli foydalanish shartlari bilan yer osti suvlariga quduqlarni burg‘ilashga gidrogeologik xulosani berish uchun arizani qabul qilish yoki rad etishni kelishib beradi. Ushbu muddatni qisqaligini inobatga olgan holda, O‘zbekiston Respublikasi Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligi tizimidagi “O‘zbekgidrogeologiya” DM: gidrogeologik xulosani **9 ish kunida** tayyorlash va “Yer qa‘ridan foydalanish markazi” DMga yuborish hamda “Yer qa‘ridan foydalanish markazi”

DM gidrogeologik xulosani **3 ish** kunida arizachiga yuborilishini belgilash maqsadga muvofiqdir.

Uchinchidan, mavjud litsenziyalash va ruxsatnomalar tizimi soddalashtirilmagan, byurokratik va korrupsiyaviy xavflarga yo‘liqdirilgan. Maxsus foydalanish bo‘yicha ruxsat olish jarayoni bir nechta davlat organlari bilan bog‘liq bo‘lib, ayrim hollarda takroriy hujjatlar, ortiqcha ma‘lumotlar talab qilinadi. Bu holat ko‘pchilik foydalanuvchilarni noqonuniy faoliyatga undaydi yoki rasmiylashgan faoliyatni yashirin holatga o‘tkazadi. Shuning uchun, huquqiy islohotlar doirasida “bir darcha” tamoyili asosida yagona axborot tizimi orqali ruxsatnoma va litsenziyalarni olish tartibini belgilash, ularning shaffofligini ta‘minlash, arizalarni ko‘rib chiqish muddatlarini qisqartirish zarur. Bu bilan tadbirkorlik faoliyati ham rag‘batlantiriladi, ham nazorat ostida bo‘ladi.

To‘rtinchidan, tabiiy resurslar sohasida javobgarlik choralarining samaradorligi past darajada qolmoqda. Hozirgi kunda noqonuniy foydalanganlik uchun qo‘llanilayotgan jarimalar ko‘p hollarda unchalik og‘ir emas, huquqbuzarlikka solishtirganda, kam iqtisodiy zarar yetkazadi. Ayniqsa, suv, o‘rmon va yer resurslaridan noqonuniy foydalanish holatlarida bunday jazolar ta‘sirchanlik darajasiga ega emas. Ayrim tadbirkorlar jarimani to‘lab, noqonuniy foyda olishda davom etadi. Shu sababli, huquqiy islohotlar doirasida javobgarlik choralarini kuchaytirish, jinoiy javobgarlikni kengaytirish, keltirilgan ekologik zarar miqdorini real hisoblab, to‘liq qoplash majburiyatini joriy qilish zarur. Bundan tashqari, sud amaliyotida ekologik nizolarning tezkor va odil hal qilinishini ta‘minlovchi ixtisoslashgan sudlar yoki ekologik sud bo‘limlarini tashkil etish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Beshinchidan, davlat organlari o‘rtasida vakolatlar taqsimoti va hamkorlik darajasi yetarli emas. Tabiiy resurslar ustidan nazorat qiluvchi tashkilotlar – Ekologiya, geologiya, suv xo‘jaligi, qishloq xo‘jaligi, favqulodda vaziyatlar va boshqa idoralar o‘zaro muvofiqlashtirilmagan holda faoliyat yuritadi. Bu esa ma‘lumotlar almashinuvi, nazorat choralari va monitoring samaradorligini pasaytiradi. Huquqiy islohotlar davlat organlari o‘rtasida aniq vakolat chegaralarini belgilash, yagona tizimli monitoring va axborot almashinuvi tizimini yo‘lga qo‘yish zaruratini keltirib chiqarmoqda.

Oltinchidan, tabiiy resurslardan foydalanishning iqtisodiy mexanizmlari hali to‘liq shakllanmagan. Masalan, ekologik to‘lovlar, kompensatsiyalar, foydalanganlik uchun tariflar barcha turdagi resurslarga nisbatan yagona prinsiplarda belgilanmagan. Bu esa iqtisodiy tartibga solishni noaniq holga keltiradi va ayrim foydalanuvchilar uchun imtiyozli sharoitlar tug‘diradi. Huquqiy islohotlar doirasida “foydalanuvchi to‘laydi” va “ifloslantiruvchi javob beradi” tamoyillari asosida yagona iqtisodiy mexanizmlarni ishlab chiqish va ularni qonuniy asosda joriy etish zarur.

Yettinchidan, aholining ekologik huquqlari va manfaatlari amalda to‘liq ta‘minlanmagan. Qonunlarda fuqarolarning atrof-muhitni muhofaza qilishdagi ishtiroki nazarda tutilgan bo‘lsa-da, amaliyotda bu imkoniyatlardan yetarlicha foydalanilmayapti. Aholining ekologik axborotga ega bo‘lish, ekologik qarorlar qabul qilishda ishtirok etish va sudga murojaat qilish huquqlari ko‘pincha rasmiyatchilik darajasida qolmoqda. Shuning uchun, islohotlar doirasida fuqarolarning ekologik huquqlarini ta‘minlash, ekologik ta‘lim va targ‘ibot tizimini kuchaytirish, fuqarolik jamiyati institutlari – NNT, ommaviy axborot vositalari va ekologik faollar bilan hamkorlikni mustahkamlash zarur. Ayniqsa, mahalliy jamoalarning resurslardan

foydalanish jarayonida monitoringda qatnashishi, ekologik baholashlarda ovozga ega bo'lishi bo'yicha aniq huquqiy mexanizmlar ishlab chiqilishi kerak.

Tabiiy resurslardan maxsus, ruxsatnoma asosida foydalanishni huquqiy ta'minlashni takomillashtirish istiqbollari mamlakatning ekologik xavfsizligi, barqaror rivojlanishi va fuqarolarning sog'lom turmush tarzini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Davlatlar ushbu yo'nalishda ijtimoiy-iqtisodiy manfaatlar hamda ekologik muvozanat o'rtasidagi optimal muvofiqlikni saqlagan holda, tabiiy resurslarga bo'lgan huquqiy yondashuvlarni muntazam takomillashtirib bormoqda. Xususan, yer qa'ridan foydalanganlik, suv resurslari, o'rmon fondi, atmosferaga tashlanadigan chiqindilar bo'yicha maxsus ruxsatnomalar asosida foydalanish tartib-taomillari huquqiy jihatdan qat'iy tartibga solinadi va bu tizimda nazorat mexanizmlari alohida o'rin egallaydi.

Maxsus ruxsatnoma (litsenziya yoki boshqa turdagi ruxsat beruvchi hujjat) asosida tabiiy resurslardan foydalanish instituti, avvalo, davlat suvereniteti doirasida resurslar ustidan egalik qilish, ulardan foydalanish va ularni muhofaza qilish funksiyalarining ifodasidir. Ko'plab rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, resurslardan foydalanishda ruxsatnoma asosidagi yondashuv ularning hisobini yuritish, foydalanish shaffofligini oshirish, ortiqcha ekspluatatsiyani oldini olish va ekologik huquqbuzarliklar ustidan samarali nazoratni o'rnatishda muhim vosita hisoblanadi.

Masalan, Germaniyada yer qa'ridan foydalanganlik ustidan federal va yerli darajadagi ruxsat berish tizimi mavjud bo'lib, u "Federal Mining Act" (Bundesberggesetz) asosida amalga oshiriladi. Bu qonunga ko'ra, resurslardan tijorat maqsadida foydalanish faqatgina oldindan belgilangan texnik va ekologik mezonlarga javob beruvchi ruxsatnoma mavjud bo'lgan taqdirdagina amalga oshirilishi mumkin. Shu bilan birga, foydalanuvchi subyektlar faoliyati qat'iy monitoring ostida bo'ladi va har yili faoliyat yuzasidan hisobot topshirishga majburdir.

AQShda esa tabiiy resurslardan foydalanishda ruxsatnoma tartibi federal organlar tomonidan muvofiqlashtiriladi. Masalan, "Bureau of Land Management" (BLM) yoki "Environmental Protection Agency" (EPA) yer qa'ri va suv resurslaridan foydalanishga oid litsenziyalar berish, ularni yangilash yoki bekor qilish vakolatlariga ega. Maxsus foydalanish shartlari ruxsatnoma shartlarida belgilab beriladi va ularning buzilishi fuqarolik-huquqiy, ma'muriy, ba'zida esa jinoiy javobgarlikka olib keladi. Mazkur tizimda asosiy e'tibor barqarorlik, atrof-muhitga ta'sirni baholash va mahalliy jamoalar manfaatlarini hisobga olishga qaratilgan.

Fransiyada tabiiy resurslardan foydalanishda ekologik xavfsizlikni ta'minlash maqsadida "Code de l'environnement" (Atrof-muhit kodeksi) muhim rol o'ynaydi. Unda tabiiy resurslarga oid har qanday xo'jalik faoliyati uchun ruxsat olish tartibi, ekologik ekspertiza o'tkazish, jamoatchilik ishtirokini ta'minlash va monitoring tizimlari batafsil belgilangan. Shuningdek, Fransiya ruxsatnoma asosida foydalanishni raqamlashtirish orqali shaffoflikni kuchaytirgan.

Xitoyda esa resurslardan foydalanishga oid ruxsat berish tartibi "Mineral Resources Law" va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar bilan belgilanadi. Unga ko'ra, har bir tabiiy resurs turi bo'yicha markaziy va mahalliy darajadagi vakolatli organlar tomonidan ruxsatnomalar beriladi, ruxsatnomada resurs turi, joylashuvi, ishlatish muddatlari, foyda solig'i va boshqa texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlar aniq belgilanadi. Ruxsat olgan subyektlar faoliyati qat'iy statistik hisobotlar asosida nazorat qilinadi va monitoring tizimi sun'iy intellekt yordamida raqamlashtirilgan.

O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida ham tabiiy resurslardan ruxsatnoma asosida foydalanish instituti mavjud bo'lib, u "Yer osti boyliklari to'g'risida"gi, "Suv va suvdan foydalanish to'g'risida"gi, "Atmosfera havosini muhofaza qilish to'g'risida"gi qonunlar va boshqa qator normativ hujjatlar bilan tartibga solinadi. Amaldagi qonunchilikka ko'ra, resurslardan foydalanish faqatgina tegishli vakolatli organ (masalan, Geologiya va mineral resurslar qo'mitasi, Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi) tomonidan berilgan ruxsatnoma asosida amalga oshirilishi mumkin. Shu bilan birga, ruxsatnoma talablarini buzganlik uchun ma'muriy va fuqarolik-huquqiy javobgarlik choralari nazarda tutilgan.

Biroq, O'zbekistonda ushbu tizimni yanada takomillashtirish uchun xorijiy davlatlar tajribasidan kelib chiqib bir nechta asosiy yo'nalishlarni ilgari surish mumkin. Avvalo, ruxsatnoma olish tartib-taomillarini raqamlashtirish, litsenziya ma'lumotlar bazasini ochiq qilish orqali shaffoflikni oshirish lozim. Shuningdek, har bir ruxsatnoma uchun ekologik ekspertiza va atrof-muhitga ta'sirni baholashning majburiyligini qonuniy jihatdan mustahkamlash, ekologik audit tizimini joriy qilish zarur. Maxsus ruxsatnomalar uchun yagona davlat reyestrini yaratish, u orqali real vaqt rejimida monitoring olib borish, ekologik va iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlarini avtomatik tarzda tahlil qilish imkoniyatini beradigan platformalar joriy etilishi istiqbolli yo'nalishlardan hisoblanadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki, tabiiy resurslardan maxsus ruxsatnoma asosida foydalanish tizimi huquqiy jihatdan aniq, oshkora va hisobdor bo'lishi lozim. Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, bunday tizim nafaqat resurslar ustidan davlat nazoratini kuchaytiradi, balki ularni asrash, barqaror rivojlanishni ta'minlash va kelgusi avlodlar uchun tabiiy boyliklarni saqlab qolishda muhim vositaga aylanadi. Shu sababli O'zbekiston qonunchiligini modernizatsiya qilish jarayonida xorijiy ilg'or yondashuvlar asosida huquqiy mexanizmlarni takomillashtirish dolzarb vazifadir.

Uchinchidan, Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 8-yanvardagi 9-son qarorining 3-ilovasi bilan tasdiqlangan Ma'muriy reglamentga ko'ra, ruxsatnoma "Lisenziya" tizimi yoki YAIDXP orqali beriladi. Ma'muriy reglamentning 12-bandida davlat xizmatlari uchun yig'imlar qanday taqsimlanishi, YAIDXP orqali murojaat bo'lsa — 10%, "Lisenziya" orqali bo'lsa — 20% Adliya vazirligiga ajratilishi ko'rsatilgan. Ushbu jihatlarni inobatga olingan holda ruxsatnomani berish jarayoni, undagi hujjatlarning mazmuni, to'lovlar taqsimoti va nazorat tartibi aniqlashtirish maqsadida ushbu ilovlarning faqatgina bittasidan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Bu esa xizmat ko'rsatish mexanizmlarini raqamlashtirish va davlat xarajatlarini asoslashga xizmat qiladi.

To'rtinchidan, Ruxsat etish xususiyatiga ega hujjat berilishi uchun zarur bo'lgan hujjatlarning talabgor tomonidan to'liq hajmda taqdim etilganligi, talabgorning hujjatlari ruxsat berishga oid talablar va shartlarga muvofiqligi, talabgor tomonidan taqdim etilgan hujjatlarda noto'g'ri yoki buzib ko'rsatilgan ma'lumotlarning mavjudligini ko'rib chiqadi.

Shuningdek, "Yer osti suv resurslarini muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalanishni tartibga solish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 2022-yil 7-dekabrda 439-sonli O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori tasdiqlangan.

Mazkur qarorning 1-bandi bilan yer osti suvlariga quduq burg'ilash va ulardan foydalanish bo'yicha moratoriy joriy etilganligi, yer osti suvlari sathi pasayib ketayotgan hududlar ro'yxati 1-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi hamda boshqa bilan yer osti suvlarining

ko'p yillik o'rtacha sathiga nisbatan suv sathi 5 metrgacha pasaygan hududlarda yer osti suvlariga quduqlarni burg'ilashga gidrogeologik xulosa va suvdan maxsus foydalanishga ruxsatnoma Davlat geologiya va mineral resurslar qo'mitasi (Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligi) tomonidan:

qishloq xo'jaligi ekin maydonlarini sug'orish maqsadlari uchun — suv tejovchi texnologiyalarni joriy etish shartlari bilan Suv xo'jaligi vazirligi bilan kelishilgan holda;

ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun — hududiy rivojlantirish dasturlari va suvdan tejamli foydalanish shartlariga asosan Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimliklari bilan kelishilgan holda berilishi belgilangan.

Yuqorida qayd etilganlarga muvofiq, har bitta arizani ko'rib chiqish uchun tegishli mutaxassis jalb etilishi hamda ketadigan vaqt sarfini inobatga olgan holda o'zgartirish kiritilishi lozim.

Beshinchidan, Ma'muriy reglamentga ko'ra, "Yer qa'ridan foydalanish markazi" DM tomonidan ruxsatnoma QR-kodli hujjat shaklida bir kun ichida yuborilishi kerak. Bu esa jarayonning tezligi va hujjat aylanishining shaffofligini ta'minlaydi.

Oltinchidan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2027-yil 27-iyuldagi PF-116-son Farmoni bilan Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligi huzuridagi "Yer qa'ridan foydalanish markazi" davlat muassasasi "yagona darcha" tamoyili asosida shaffoflikni ta'minlagan holda yer qa'ridan foydalanish sohasida tadbirkorlik sub'ektlariga davlat xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha vakolatli organ etib belgilangan. Ammo, ruxsat etish tartib-taomillari sohasidagi vakolatli organ sifatida Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligi huzuridagi "Yer qa'ridan foydalanish markazi" davlat muassasasi etib belgilanishi lozim.

Xulosa qilib aytganda, tabiiy resurslardan oqilona foydalanishni ta'minlashda huquqiy islohotlar nafaqat zarur, balki kechiktirib bo'lmaydigan dolzarb vazifadir. Bu islohotlar resurslarning uzoq muddatli saqlanishi, ekologik muvozanatni ta'minlash, iqtisodiy taraqqiyotga xizmat qiladigan barqaror siyosat yuritish uchun huquqiy poydevor vazifasini o'taydi. Huquqiy tizimni takomillashtirish orqali nafaqat resurslar himoya qilinadi, balki ekologik adolat, ijtimoiy ishonch va iqtisodiy samaradorlik ham ortadi. Shu boisdan ham O'zbekiston Respublikasi uchun tabiiy resurslardan oqilona foydalanishni ta'minlashga qaratilgan huquqiy islohotlar – strategik ustuvor yo'nalish sifatida baholanishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ekologiya huquqi. Darslik. /Mas'ul muharrir: M.B. Usmonov. -T.: TDYI nashriyoti, 2006. - 361 bet Sarlvhada.: O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, Toshkent Davlat yuridik instituti;
2. Международные руководящие принципы децентрализации и доступа к базовым услугам для всех. ООН – Хабитат. 2009. // БМТнинг расмий веб-сайти – www.un.org;
3. G.Sh.Uzakova Ochiq va barqaror shaharlarni rivojlantirishning huquqiy masalalari. Monografiya / Mas'ul muharrir: yu.f.d. prof. M.B.Usmonov – Toshkent: TDYU, 2022. 49-bet;
4. "Yer osti suvlaridan foydalanishga oid ruxsat etuvchi hujjatlarni berish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 08.01.2021 yildagi 9-son. (Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 09.01.2021-y., 09/21/9/0007-son; Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 26.03.2022-y., 09/22/133/0237-son; 06.08.2022-y., 09/22/431/0716-son; 29.09.2022-y., 09/22/541/0859-

son, 29.12.2023-y., 09/23/688/0996-son; 29.12.2023-y., 09/23/685/1010-son; 02.04.2024-y., 09/24/169/0260-son);

5. “Suv va suvdan foydalanish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonun. (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1993-y., 5-son, 221-modda; O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1997-y., 4-5-son, 126-modda; 1998-y., 9-son, 181-modda; 2000-y., 7-8-son, 217-modda; 2001-y., 1-2-son, 23-modda; 2004-y., 1-2-son, 18-modda; O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2007-y., 50-51-son.....)